

Fortepiano ijrochiligi ta'limining hozirgi holati

Go‘zal Aktam qizi Madjidova
Buxoro xalqaro universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fortepiano ijrochiligi ta'limining hozirgi holati tahlil qilinadi. Unda sohadagi mavjud muammolar, ta'lim mazmunining takomillashuvi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va xalqaro tajribaning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, fortepiano ijrochiligidagi iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni qo‘llab-quvvatlash masalalari ilmiy-nazariy asosda ko‘rib chiqilgan. Fortepiano musiqa maktablari, kollejlar, konservatoriylar va san’at institutlarida asosiy o‘quv yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘qitiladi. Ushbu cholg‘u asbobi orqali o‘quvchilar nafaqat texnik mahoratni, balki musiqiy tafakkur, ifoda va ijodiy yondashuvni ham o‘zlashtiradilar. Fortepiano ijrochiligi ta'limining hozirgi holati uzluksiz takomillashuv, metodik yondashuvlar yangilanishi, pedagogik innovatsiyalarning kirib kelishi bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: fortepiano, ijrochilik, musiqa ta’limi, metodika, iste’dod, pedagogika, innovatsiya, cholg‘u asbobi, texnik mahorat, musiqiy tafakkur

The current state of piano performance education

Go‘zal Aktam qizi Madjidova
Bukhara International University

Abstract: This article analyzes the current state of piano performance education. It highlights the existing problems in the field, the importance of improving the content of education, modern pedagogical approaches and international experience. Also, the issues of identifying and supporting talented young people in piano performance are considered on a scientific and theoretical basis. Piano is taught as one of the main areas of study in music schools, colleges, conservatories and art institutes. Through this instrument, students master not only technical skills, but also musical thinking, expression and creative approach. The current state of piano performance education is characterized by continuous improvement, updating methodological approaches, and the introduction of pedagogical innovations.

Keywords: piano, performance, music education, methodology, talent, pedagogy, innovation, musical instrument, technical skill, musical thinking

Fortepiano ijrochiligi O‘zbekistonda musiqa madaniyatining rivojida muhim o‘rin egallaydi. U nafaqat professional musiqachilar tayyorlashda, balki yosh avlodning estetik didini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Fortepiano musiqa maktablari, kollejlar, konservatoriylar va san’at institutlarida asosiy o‘quv yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘qitiladi. Ushbu cholg‘u asbobi orqali o‘quvchilar nafaqat texnik mahoratni, balki musiqiy tafakkur, ifoda va ijodiy yondashuvni ham o‘zlashtiradilar.

O‘zbekistonda fortepiano ijrochiligiga bo‘lgan qiziqish XX asr boshlaridan boshlab shakllana boshlagan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy va jahon musiqasi merosini o‘rganish va targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratildi. Bu jarayonda fortepiano ijrochiligining roli yanada oshdi. Kompozitorlar fortepiano uchun asarlar yaratdilar, milliy kuy va ohanglar ushbu asbob imkoniyatlari orqali yangicha talqinda ijro etila boshlandi.

Fortepiano ijrochiligi - bu nafaqat texnik mahorat, balki ijodiy tafakkur, musiqiy his-tuyg‘u va estetik didni uyg‘unlashtiruvchi murakkab san’at turidir. Mazkur yo‘nalishda ta’lim berish jarayoni o‘ziga xos metodik yondashuvni, tizimli mashg‘ulotlarni va pedagogik sabr-toqatni talab qiladi. Fortepiano ijrochiligi ta’limi musiqa maktablari, kollejlar, oliy o‘quv yurtlari va maxsus kurslarda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, yosh musiqachilarning professional jihatdan shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Fortepiano mashg‘ulotlari orqali o‘quvchi birinchi navbatda musiqa asbobini to‘g‘ri ushslash, nota savodini egallash, ritmni his etish, tovush sifatini anglash va ifodalilik bilan ijro etish kabi asosiy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Dastlabki bosqichlarda fortepianoni o‘rganish ko‘proq musiqiy savodxonlik, barmoqlarni mustahkamlash va texnik asoslarni shakllantirishga qaratiladi. O‘quvchi avval oddiy etyudlar, xalq qo‘sishlari va bolalar musiqasi namunalarini ijro etadi. Bu bosqichda asosiy maqsad - asbob bilan tanishish va unga bo‘lgan ishonchni shakllantirishdir.

Fortepiano ijrochiligini o‘rgatishda muhim metodik yondashuv - bu individual darslar asosida har bir o‘quvchining imkoniyati, iste’dodi va qiziqishini inobatga olishdir. O‘qituvchi o‘quvchining texnik darjasи, musiqiy didi va qobiliyatiga qarab dastur tuzadi. Shu bilan birga, har bir darsda ijodiy muhit, emotsiyonal erkinlik va motivatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijrochilik mahoratini rivojlantirishda mashhur kompozitorlar - Bax, Motsart, Beethoven, Shopen, Shuman, Raxmaninov kabi bastakorlarning asarlari o‘quv dasturining asosiy qismini tashkil etadi. Bu asarlar o‘quvchini nafaqat texnik jihatdan, balki musiqiy tafakkur, obraz yaratish, ijodiy yondashuv nuqtai nazaridan ham rivojlantiradi. Har bir asar ustida ishlashda uning strukturasi, dinamikasi, frazalari va musiqiy g‘oyasi chuqur o‘rganiladi.

Fortepiano ijrochiligi ta’limida asosiy maqsadlardan biri - sahna madaniyatini shakllantirishdir. Talabalar turli konsertlar, ko‘rik-tanlovlар, ustoz-shogird darslarida

ishtirok etish orqali sahnada o‘zini tutish, asarni ifodali va ishonchli ijro etish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning sahna tajribasini boyitadi va psixologik jihatdan mustahkamlab boradi.

Bugungi kunda fortepiano ta’limida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tendensiyasi kengaymoqda. Masalan, raqamli pianino, onlayn darslar, interaktiv nota dasturlari, video tahlil vositalari o‘quv jarayonini samaraliroq tashkil etishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, internet orqali dunyoning yetakchi ijrochilari ijodini o‘rganish, video master-klasslar tomosha qilish imkoniyati ham o‘quvchilarning bilim va tafakkur doirasini kengaytiradi.

Fortepiano ijrochiligi shaxsiy intizom, mehnatsevarlik va sabr-toqatni ham tarbiyalaydi. O‘quvchi har kuni ma’lum vaqtni mashg‘ulotga ajratadi, bu esa uni maqsadga intiluvchan, mas’uliyatli va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi. Shuning uchun fortepiano nafaqat musiqiy ko‘nikma, balki hayotiy qadriyatlarni ham singdiruvchi san’at vositasidir.

Fortepiano ijrochiligi milliy musiqa an’analarini zamonaviy ifoda vositalari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Shu bois, u pedagogik, sahnaviy va ilmiy jihatdan ham chuqur o‘rganilmoqda. Ko‘plab o‘zbek fortepiano ustalari xalqaro tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, mamlakat obro‘sini yuksaltirib kelmoqda. Shuningdek, fortepiano ijrochiligi orqali yosh iqtidor egalari o‘z iste’dodlarini namoyon etish, milliy va jahon madaniy merosini o‘rganish imkoniga ega bo‘lmoqdalar.

Zamonaviy fortepiano ta’limi nafaqat texnik mahoratni rivojlantirish, balki musiqiy tafakkur, obraz yaratish va ijodiy yondashuvni shakllantirishga ham yo‘naltirilmoqda. Bu borada mashhur rus pedagogi Genrix Neygauz quyidagicha ta’kidlaydi: "Musiqa - bu ichki nutq, qalb tovushi. Fortepiano chalishni o‘rgatish — bu shunchaki barmoqlarni harakatlantirish emas, balki musiqiy fikrni tarbiyalashdir." Ushbu yondashuv o‘quvchilarda musiqiy asarga chuqur munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning musiqiy ta’lim muassasalarida fortepiano yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy o‘quv dasturlari ishlab chiqilmoqda. Har bir yosh guruhiga mos o‘quv rejalar, tinglovchilarning yosh psixologiyasini inobatga olgan holda tuzilmoqda. Shu bilan birga, interaktiv texnologiyalar, ya’ni raqamli platformalar, video darslar, audio tahlil vositalari joriy qilinmoqda. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Biroq mavjud holat tahlili shuni ko‘rsatadiki, chekka hududlarda fortepiano yo‘nalishi bo‘yicha malakali pedagog kadrlar yetishmayapti. Bu esa musiqiy ta’lim sifati va barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, ijrochining individual imkoniyatlariga mos metodik yondashuvlar har doim ham qo‘llanilmayotgani kuzatiladi. Bu borada xalqaro tajribani o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ko‘plab yosh fortepiyanachilar xalqaro va respublika miqyosidagi tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishmoqda. Bu esa ta’lim sifatining oshganidan dalolat beradi. Shuningdek, tanlovlarda ijrochilarning nafaqat klassik, balki zamonaviy kompozitorlar asarlarini ham muvaffaqiyatli ijro etayotganlari quvonarli holatdir. Bu ijrochilik doirasining kengayishidan dalolat beradi.

Professor L.N.Oborinning fikricha: "Talaba uchun har bir asar - bu yangi olamdir. O‘qituvchi esa bu olam eshigini ochib beruvchi kalitdir." Ushbu yondashuv hozirgi fortepiano ta’limining dolzarb yo‘nalishlarini belgilaydi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, fortepiano ijrochiligi ta’limining hozirgi holati uzlusiz takomillashuv, metodik yondashuvlar yangilanishi, pedagogik innovatsiyalarning kirib kelishi bilan ajralib turadi. Ta’limda sifatli o‘zgarishlarga erishish uchun quyidagi masalalarga e’tibor qaratish lozim: malakali kadrlarni tayyorlash va ularni rag‘batlantirish, metodik adabiyotlar bazasini boyitish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, iqtidorli yoshlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada mustahkamlash. Shu asosda fortepiano ijrochiligida xalqaro andozalarga mos raqobatbardosh ijrochilarni tarbiyalash imkoniy yaratiladi. Fortepiano ijrochiligi ta’limi - bu o‘ziga xos pedagogik va ijodiy jarayon bo‘lib, unda texnika bilan birga san’atni, yurak bilan birga aqlni uyg‘unlashtirish zarur. Fortepiano orqali o‘quvchi nafaqat musiqiy ifodani, balki ichki dunyosini ham boyitadi. Shu sababli bu yo‘nalishdagi ta’lim jarayoni yuqori malakali ustozlar, chuqur metodika va mukammal repertuar asosida olib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Г.Г. Нейгауз «Об искусстве фортепианной игры». Записки педагога. (1987г).
- Оборин Л.Н. О некоторых принципах фортепианной техники // Статьи. Воспоминания. М.: Музыка, 1977. - с.42-54.84.0борин
- I.I.Axtamov. Boshlang‘ich sinflarda musiqa o‘qitishning interfaol metodlaridan foydalanish. Tafakkur manzili. 2024/5/22
- I.I.Axtamov. The role of classical music art in higher musical and pedagogical education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Vol. 4 No. 6 (2023): wos 2023-06-17
- I.I.Axtamov. Organization of classes on listening to samples of the national makom in primary schools. Academia Science. In Volume 4, Issue 5 of Academicia Globe: Inderscience Research (AGIR) May 2023
- I.I.Axtamov. Musiqa madaniyati darslarida musiqa savodxonligi faoliyatining o’rni. Journal of advanced research and stability. 22.12.2022
- I.I.Axtamov. Musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasining o’rni. Science and Education 3 (1) 2022-01-18

8. I.I.Axtamov. Introducing students to the art of makom through music culture lessons. Eurasian journal of academic research. Volume 1 Issue 03. 2021-06-10
9. I.I.Axtamov. Maqom an'anaviy kasbiy musiqa namunalarini o'rganishda ovoz xususiyatlari. Scientific progress. ISSN 2181-1601/ 2021/03 B.648-653.
10. К.Б.Холиков. Защитный уровень мозга при загрузке тренировочных занятиях и музыкального моделирование реальных произведениях. Science and Education 4 (7), 269-276
11. К.Б.Холиков. Манера педагогической работы с детьми одарёнными возможностями. Science and Education 4 (7), 378-383
12. К.Б.Холиков. Роль теоретичности и применения информационных систем в области теории, гармонии и полифонии музыки. Scientific progress 2 (3), 1044-1051
13. К.Б.Холиков. Образовательное учреждение высшего профессионального образования в музыкальной отрасли Узбекистана. Scientific progress 2 (6), 946-951
14. К.Б.Холиков. Задачи хора для вырождающегося нагруженного управления косвенного, противоположного и параллельно-двигающегося голоса. Scientific progress 2 (3), 690-696
15. К.Б.Холиков. Магнитные свойства тяготение к человеку многоголосного произведения музыке. Scientific progress 2 (3), 728-733
16. К.Б.Холиков. Дифференцированное обучение студентов на занятиях гармонии и анализа музыкальных произведений. Scientific progress 2 (3), 1038-1043
17. К.Б.Холиков. Звуковысотная организация и последовательность частей формы музыки. Scientific progress 2 (4), 557-562
18. К.Б.Холиков. Свободой выбора исполнительского состава в эпоху ренессанса. Scientific progress 2 (4), 440-445
19. К.Б.Холиков. Этапы формирования и перспективы развития инфраструктуры хорового коллектива. Scientific progress 2 (3), 1019-1024
20. К.Б.Холиков. Полуимпровизационные формы профессиональной музыки. Scientific progress 2 (4), 446-451
21. К.Б.Холиков. Область применения фугированных форм. Тройные и четверные фуги. Фугетта и Фугато. Scientific progress 2 (1), 1052-1059
22. К.Б.Холиков. Проблематика построения современных систем мониторинга объектов музыкантов в сфере фортепиано. Scientific progress 2 (3), 1013-1018
23. К.Б.Холиков. Содержание урока музыки в общеобразовательном школе. Scientific progress 2 (3), 1052-1059

24. К.Б.Холиков. Представление результатов измерений системы контроля параметров дыхания в вокальной пении. *Scientific progress* 2 (3), 1006-1012
25. К.Б.Холиков. Гармония к упражнению голоса их роль в регуляции мышечной деятельности при вокальной музыки. *Scientific progress* 2 (3), 705-709
26. К.Б.Холиков. Область применения двойные фуги. *Scientific progress* 2 (3), 686-689
27. К.Б.Холиков. Музыкально театральные драмы опера, оперетта. *Science and Education* 3 (2), 1240-1246
28. К.Б.Холиков. Фактуры, музыкальной формы, приводящие к структурной, драматургической и семантической многовариантности произведения. *Scientific progress* 1 (4), 955-960
29. К.Б.Холиков. Подбор состава хора и изучение музыкального материала в школьном возрасте 10-13 лет. *Scientific progress* 2 (3), 999-1005
30. К.Б.Холиков. О принципе аддитивности для построения музыкальных произведения. *Science and Education* 4 (7), 384-389